



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



A. AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI
XTXQTMOHM

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI**

**"TA'LIMDA KREATIV YONDASHUV YO'LLARINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI"**

**mavzudagi respublika ilmiy – amaliy
On Line konferensiyasi**

MATERIALLARI

Jizzax - 2021 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI**

**"TA'LIMDA KREATIV YONDASHUV YO'LLARINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI"**

*mavzudagi respublika ilmiy –amaliy
On Line konferensiyasi materiallari*

Jizzax 2021-yil

“Ta’limda kreativ yondashuv yo’llarini rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy ON-LINE konferensiya materiallari Jizzax; 2021 yil 281 bet

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020- 6- noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 farmoni, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-qarorida ko‘rsatib o‘tilgan va belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida mualliflar o‘z maqolalarida **“Ta’limda kreativ yondashuv yo’llarini rivojlantirishning dolzarb masalalari”** mavzusiga oid o‘z fikr va mulohazalarini ushbu respublika ilmiy-amaliy ON-LINE konferensiyasi to‘plamida bayon qilishgan.

Tahrir hay’ati

A.Sh.Xolmuroov	Iqtisod fanlari nomzodi, Jizzax viloyati XTXQTMOHM direktori
Sh.D.Abdurashidov	Jizzax viloyati XTXQTMOHM direktor o‘rinbosari
R.Q.Karimov	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi dotsenti
M.A.Tilakova	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi muduri. Pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Sh.H.Haydarov	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi
M.G’.Mo’mjonova	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi
N.Ya Qurbonov	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ch.Yunusova	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi
Texnik muharrir	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi kabinet mudirasi
G.T.Hamrayeva	

To‘plamda o‘rin olgan maqolalarning saviyasi sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar masuldirlar.

To‘plam materiallari Jizzax viloyati XTXQTMO Hududiy markazi ilmiy metodik kengashining 2021 yil _____ sentabrdagi _____ sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

estetik rivojlanishda tabiat insonga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi ya'ni u o'z holicha ham go'zallik hissi uyg'otadi va shakllantiradi, hamda san'atning har xil turlariga o'tiladigan o'ziga xos ko'prik vazifasini o'taydi.

Oilaning estetik tarbiyada yetakchi yoki bo'ysunuvchi mavqeni egallashi bolaning yoshiga bog'liq va buni hisobga olmoq kerak: kichik yoshda bu yetakchi mavqe ancha kuchli bo'lib, katta yoshda birmuncha bo'shashadi. Ulg'ayish jarayonini asta – sekin oilaning ta'siridan chiqish va jamoaning ijtimoiy munosabatlар tizimiga tortilish deb ta'riflash ham mumkin. Shaxsning rivojlanishining xar bir bosqichida bolaga estetik hamda u bilan chambarchas bog'liq bo'lган axloqiy tarbiya berish mazmuni va metodlarining o'ziga xosligi bilan birga o'tadi.

Keyingi vaqtarda oilada bolaga bo'lган munosabat, shartli qilib aytganda sovib borayotganligini ko'ramiz. Ehtimol bunda telekommunikatsiya va ommaviy aloqa vositalarining oila turmushiga faol ravishda kirib borayotganligining oqibatidir. Bola bilan birga qo'shiq aytish, o'yin o'ynash, topishmoq aytish, bayram kechalari uyushtirish, oilaviy kitob o'qish va shu kabilar oilada kamdan kam uchraydigan hodisaga aylanib bormoqda. Bularning har biri muloqotning va badiiy didni o'stirishning, hayotga estetik munosabat to'g'risidagi dastlabki tasavvurlarga ega bo'lishning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Ona allasi, oilada birgalikda musiqa chalish, rasmlar chizish, qo'g'rchoq teatri bolaning dunyonи do'stona, ma'naviyatiga boy, insonparvar, estetik jihatdan go'zal deb qabul qilishiga yordam beradi.

Oiladagi estetik muhit katta ahamiyatga ega. Ozodalik va saranjom – sarishtalikka, kashtachilik va badiiy buyumlar yasashga qiziqish estetik muhitni xilma-xil qilibgina qolmay, balki go'zallikka intilish odati va san'atga qiziqishni rivojlantiradi.

Bolada shakllanib boradigan sog'lom, axloqiy hamda estetik tuyg'u odatda maktab va oilaning hamkorligi bilan qilingan mehnat natijasi deb bemalol aytta olishimiz mumkin. Chunki maktab bilan oila o'rtasidagi izchillik har ikkala tomonning ham bir – birlari boshlagan ishni butun choralar bilan qo'llab – quvvatlash va boyitishga intilishdan iborat bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida yuqorida fikrlardan kelib chiqib, bola estetik tarbiyasini shakllantirish va rivojlantirishda oila va maktab xamkorligi o'z ijobiy ta'sir kuchini ko'rsata oladi deb bemalol aytta olishimiz mumkin.

*X.N.Muzaffarova
JDPI Maxsus pedagogika kafedrasи
katta o'qituvchi
Ismatullayev Otobek
Maxsus pedagogika(Logopediya)
mutaxassisligi I - kurs magistranti*

BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning tarbiyasi va ta'limi korrekitson pedagogika va maxsus psixologiyaning muhim vazifasidir. Mamlakatimizda amal qilayotgan maxsus ta'lim tizimi rivojlanishi me'yordan chetga chiqqan bola nuqsonini korrektsiyalash, uni ijtimoiy moslashtirishda eng maqbul shart-sharoitlarni yaratishdan iborat vazifalarni hal qiladi. Korrektson pedagogika va maxsus psixologiyaga oid bilimlar maxsus korrektson ta'lim muassasalarida ham, ommaviy ta'lim

sharoitida ham rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llarini topishga yordam beradi.

Maxsus psixologiya ta'limda va tarbiyada maxsus shart-sharoitlarning yaratilishiga muhtoj bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rghanadi. Bunday bolalar toifasiga analizatorlarida, tayanch-harakat appratida, emotsiyal-irodaviy sohada buzilishlar kuzatilgan, turli psixik buzilishlarga uchragan bolalar kiradi.

Rivojlanishdagi me'yordan chekinishlar yoki nuqsonlar asosida nerv sistemasining yoki muayyan analizatorning buzilishlari yotadi: ularning natijasida alohida organlar yoki butun organizmning tuzilishi va faoliyatida chekinishlar yuzaga keladi. Chekinishlar bachadon ichida, tug'ruqdan keyingi rivojlanish jarayonida, irsiy omillar ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin. Anomaliyalarning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq holda ularni tug'ma va egallangan turlari farqlanadi.

Har qanday patologiyada nerv sistemasida shikastlanish o'choqlarini topish mumkin. bunday hollarda tug'ma yoki egallangan organik shikastlanishlar borligi nazarda tutiladi. Biroq organik shikastlanishlar bilan bir qatorda o'ta ta'sirchanlik yoki tormozlanish, alohida funktional sistemalar ishining muvofiqlashmaganligi bilan bog'liq holda nerv sistemasidagi u yoki bu bo'lmlar funktsiyasining buzilishlari uchrashi mumkin. Bunday hollarda nerv faoliyatining funktional buzilishlari haqida so'z yuritiladi.

Tug'ma anomaliyalarning yuzaga kelish sabablari turlicha. Tug'ma anomaliyalar bachadon ichida rivojlanish davrida embrion yoki rivojlanayotgan homilaga har xil zararli ta'sirlar (intoksikatsiyalar – organizmning zaharli moddalar bilan zaharlanishi, infektsiyalar, jismoniy va psixik jarohatlar, toksikozlar, noto'g'ri ovqatlanish, homilador ayolning turli kasallikkleri – yurak, o'pka, endokrin bezlar) natijasi bo'lishi mumkin. Onaning och qolishi, distrofiya, noto'g'ri ovqatlanish homilada oziqa moddalar (oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar)ning yetishmovchiligidagi sabab bo'ladi. Gormonal buzilishlar, buyrak va jigar kasallikkleri, onanining ichkilikka ruju qo'ygani, homiladorlik paytida antibiotiklar, sul'fanilamid preparatlarni va h.k. iste'mol qilish va shu kabi boshqa omillar ham homila rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bachadon ichidagi infektsiyalarni har xil kasalliklar viruslari (qizilcha, gripp, qizamiq va h.k.) keltirib chiqarishi mumkin. homila kasalligining manbai – onanining o'zi. Tug'ma qizilchada ko'z kasallikkleri, masalan, katarakta (ko'z gavharining xiralashishi), shuningdek tayanch-harakat organlarining shikastlanishi kuzatiladi.

Ona va homila qonining rezus moslashmaganligi natijasida har xil miya shikastlanishlari yuzaga keladi. Bunday hollarda qobiq osti hosilalari, qobiqning chakka sohalari va eshitish nervlari aziyat chekadi.

Rivojlanayotgan homilaga patologik omillarning ta'sir ko'rsatish vaqtin bilan ular ta'siridagi salbiy oqibatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud. Embrion bachadon ichidagi rivojlanishida qancha erta shikastlangan bo'lsa, ushbu zararli holatlar keltirib chiqaradigan oqibatlar shunchalik og'ir bo'ladi. Eng qo'pol nutq nuqsoni homilaning 4 haftadan to 4 oygacha bo'lgan davrda rivojlanishi buzilganida yuzaga keladi.

Ko'p hollarda tug'ma bolalar nuqsonlari genetik (irsiy) omillarning ta'siri sifatida yuzaga keladi. Xromosomalarning soni va tuzilishidagi buzilishlar keltirib chiqargan ayrim oligofreniya turlari (masalan, Daun kasalligi) va psixozlar irsiy yo'l bilan o'tishi mumkin. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida xromosomalar keltirib chiqargan kasallikklar 1%ni tashkil qiladi. SHuningdek karlikning ayrim turlari va ko'rish analizatorlarining ayrim buzilishlari ham nasldan naslga o'tishi kuzatiladi. Xromosomalar kasalliklarida mikrotsefaliya (katta yarim sharlar qobig'inining rivojlanmay

qolishi) uchrashi mumkin, bu chuqur aqliy nuqsonni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ota-onadagi generativ hujayralarning rivojlanmay qolganligi nafaqat irsiyat bilan bog'liq bo'ladi, balki tashqi ta'sirlarda ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, ona organizmiga yadro nurlanishining ta'siri yoki u yashab turgan joydagi ekologik buzilishlar ko'p hollarda bolaning majruh bo'lishiga va aqliy orqada qolishiga olib kelishi mumkin.

Naslga ota-onaning ichkilikka va giyohvandlikka ruju qo'ygani ham naslga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi va tug'ma nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Onaning ichkilikbozligi homilaning markaziy nerv sistemasida, suyak sistemasi va ichki organlarida patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. "Alkogolizm sindromi" degan holat kuzatiladi, va u homila o'sishining orqada qolishi, mikrotsefaliya (boshning kichrayishi), mushaklarning zaiflashuvi, o'ta ta'sirchanlik va betartib harakatlanish bilan kechadi.

Orttirilgan bolalar anomaliyalari bolaning tug'ilish paytida va keyingi rivojlanish davrlarida uning organizmiga yetkaziladigan turli zararli ta'sirlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. bunda homilaning mexanik shikastlanishi (tug'ruq paytidagi jarohatlar), tug'ilayotgan bola nafasining to'xtab qolishi (tug'ruq paytidagi asfiksiya) juda xavfli.

Tug'ruq jarayoni qanday kechgani bolaning keyingi rivojlanishi uchun g'oyat muhim. Hozirgi paytda nomaqbul tug'ruq holatlari ko'p uchraydi. Ayniqsa har xil tug'ruq jarohalari tez-tez uchrab turadi. Ular orasida asfiksiya – homilaning bo'g'ilishi birinchi o'rinda turadi. Keyin keng uchrash darajasii bo'yicha bosh suyagining lat yeyishi, miya jarohatlari, tug'ruq paytida tug'ayotgan ayol holatining noto'g'riliqi, masalan, tug'ruq faoliyatidan keyin oyoqqa turishi keladi.

Bola ilk yoshida (1-3 yoshlarda) boshidan kechirgan og'ir kasalliklarni natijasida markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi kelib chiqishi mumkin. Bularga meningitlar, entsefalitlar, poliomielitlar, qizamiq, gripp kiradi. Meningit (miya qobiqlarining yallig'lanishi) bilan kasallanish gidrotsefaliyalar, karlik, tayanch-harakatning buzilishi, ruhiy rivojlanish orqada qolishga olib kelishi mumkin. Entsefalit (bos miyanng yallig'lanishi) bilan kasallanish oqibatida ko'p jihatdan bemorning yoshiga bog'liq. Bolaning ilk yoshida bu chuqur ruhiy va motor rivojlanishning orqada qolishi, affektiv portlashlar, kayfiyatning nobarqarorligiga sabab bo'ladi. Poliomielit (nerv sistemasining o'tkir infektsion kasalligi) bolaning harakatlanish imkoniyatlarini keskin cheklab qo'yishi mumkin. Bu kasallik alohida mushaklar guruhining barqaror falajlanishi bilan kechadi.

Bola hayotining nomaqbul ijtimoiy shart-sharoitlari ham uning rivojlanishiga u yoki bu darajada salbiy ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi. Ular erta bola nato'g'ri rivojlanishiga olib keladi. Bu esa bolaning ham jismoniy, ham intellektual, ham shaxs sifatidagi rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Bola rivojlanishida kamchiliklarni chetlab o'tish imkon bo'lmay qolgan hollarda bor kuchni bola organizmining sog'lom tizimlaridan maksimal darajada foydalanish, bola rivojlanishidagi kamchiliklar bilan bog'liq qiyinchiliklarga qaramay, unga hayotda o'z o'rnini topishga yordam berishga qaratish lozim.

Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar bu jismoniy yoki ruhiy rivojlanishi buzilgan va maxsus ta'lim sharoitlariga ehtiyoj sezgan bolalardir.

Kamchiligi bo'lgan bolalar va me'yordagi bolalarning rivojlanishi bir xil qonuniyatlar asosida kechadi. Buzilgan rivojlanish jarayonida bolada bu rivojlanishning nafaqat salbiy, balki ijobiy jihatlari ham namoyon bo'ladi. Rivojlanishi orqada qolgan bolalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda saqlanib qolgan funktsiyalardan foydalanish evaziga tabiiy kompensatsiya jarayonlari kechadi. Biroq kamchiligi bo'lgan bolalarning rivojlanishini me'yorga maksimal darajada yaqinlashtirish uchun korrektcion yo'nalishga ega bo'lgan va nuqsonning o'ziga xos tomonini hisobga olgan maxsus pedagogik ta'sir ko'rsatish tizimi talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аюпова М.Ю. Логопедия. Ўзбекистон файласуфлар Миллий жамияти. Т.: 2011 й.
2. Волкова Л.С. «Логопедия» Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по спец. «дефектология (дошк.)»— М.: Просвещение, 1989.
3. Ефименкова Л. Н. Формирование речи у дошкольников — М., 1985

X.N.Muzaffarova

*JDPI Maxsus pedagogika kafedrasi
katta o'qituvchi*

D.Ikramova

*Maxsus pedagogika(Logopediya)
mutaxassisligi kafedrasi II kurs talabasi*

BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR

Anomal rivojlanish turi oliv nerv sistemasining shikastlanish vaqtiga bog'liq. Bolaning 3 yoshigacha va 3 yoshidan keyin yuzaga keladigan markaziy nerv sistemasining shikastlanishi har xil turdag'i dizontogenezlarning shakllanishiga olib keladi. Agar shikastlanish bola 3 yoshga kirguniga qadar sodir bo'lga bo'lsa, bu holda bola nuqsonli rivojlanadi. Rivojlanish sodir bo'ladi, biroq u buzilgan bo'ladi: rivojlanmay qolish (oligofreniya), rivojlanishning orqada qolishi (alaliya) paydo bo'ladi. Agar psixikaning buzilishi bola 3 yoshga to'lganidan keyin sodir bo'lsa, bunda shakllanib bo'lga psixik funktsiyalarning yemirilishi (yo'qotilishi) sodir bo'ladi. Bunday hollarda aniq ifodalangan salbiy dinamika kuzatiladi, ya'ni bolaning psixik holati yomonlashib boraveradi va psixikaning butunlay yemirilishiga olib keladi.

Anomal rivojlanish turi buzilish bosh miya qobig'inining qaysi uchastkalari shikastlanganiga hamda buzilishning og'irlilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Oliy psixik funktsiyalar inson psixikasini hayvon psixikasidan ajratib turadigan bosh omildir. Oliy psixik funktsiyalar deb o'z kelib chiqishiga ko'ra ijtimoiy ruh kasb etgan, insonning hayoti davomida shakllanadigan, o'zlarining amalga oshish usuliga ko'ra ixtiyoriy bo'lga va nutq orqali ifodalananadigan murakkab psixik jarayonlarga aytildi. Psixik funktsiyalarning ikkita darajasi farqlanadi: tabiiy psixik hodisalar va madaniy psixik hodisalar.

Tabiiy psixik hodisalar psixik rivojlanishning shunday asosiki, inson ular bilan birga tug'iladi, ya'ni ular nasldan naslga meros bo'lib o'tadi.

Madaniy psixik hodisalar esa insoniyat jamiyatining madaniyati ta'siri ostida shakllanadi. Madaniyat deganda sivilizatsiya erishgan jami yutuqlar ko'zda tutiladi. Sivilizatsyaning bosh yutug'i bu, shubhasiz, og'zaki va yozma nutqning yuzaga kelishidir.

Oliy psixik funktsiyalarning ikkinchi darajasi insonning hayoti davomida shakllanadi. Uning shakllanish mexanizmi qanday?

Bunda avval o'tgan ajddolarning madaniy-tarixiy tajribasi, bilimlari nutq va tarbiya vositasida o'zlashtiriladi. Aynan shu nuqtai nazar L.S.Vigotskiyning "Psixikaning kelib chiqishi va rivojlanishining madaniy-tarixiy nazariyasi" nomiga asos bo'ldi.

Dizontogenet – bolalikda oliy psixik funktsiyalar shakllanishining buzilishi.

1-turdagi dizontogenet. Rivojlanmay qolish (mexanizmi: psixik funktsiyalarning rivojlanishida to'xtash kuzatiladi).